

OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Aripov A.S.

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Bugungi globallashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlari bozori jahon iqtisodiyotining dinamik rivojlanayotgan segmentiga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida sifatli ta'limni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, jahonda oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar soni 260 million nafardan ortiqni tashkil etadi, 20 mingdan ziyod rasman tan olingan oliy ta'lim tashkilotlari (OTTLari) faoliyat yuritmoqda.³

Raqobatning kuchayishi, xalqaro reytinglar tizimining shakllanishi va bilimlar iqtisodiyotiga o'tish sharoitida OTTLarining samaradorligi ko'p jihatdan ularda joriy etilgan menejment tizimiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, OTTLarida zamonaviy menejment tizimini takomillashtirish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega dolzarb masaladir.

Global miqyosda oliy ta'lim bozoridagi raqobat muhitining keskinlashuvi OTTLari o'rtasida raqobat kurashning kuchayishiga olib kelmoqda. OTTLari oldiga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatni oshirish va xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash kabi vazifalar qo'yilmoqda. Bu esa menejment nazariyalarini chuqur tahlil qilish va ularni oliy ta'lim tizimiga mos ravishda tatbiq etishni taqozo etadi.

Menejment fanining rivojlanishi bir nechta bosqichlarda amalga oshgan bo'lib, har bir bosqich universitet boshqaruvi uchun muayyan metodologik xulosalarni taqdim etadi.

Klassik boshqaruv maktabi namoyandalari Frederick Taylor va Henri Fayol mehnatni ratsional tashkil etish, vazifalar taqsimoti va boshqaruv funksiyalarini tizimlashtirish g'oyalarini ilgari surgan. Ularning konsepsiyasi OTTLarida tashkiliy tartib-intizom va funksional boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Ularning konsepsiyasi OTTLarida boshqaruvida tashkiliy tuzilmani shakllantirish, vakolat va mas'uliyatni taqsimlash, rejalashtirish va nazorat funksiyalarini institutsionallashtirish jarayonlarida o'z aksini topgan. Biroq OTTLari ijtimoiy-intellektual tizim bo'lganligi sababli faqat ma'muriy-buyruqbozlik mexanizmiga tayangan boshqaruv modeli samaradorlikni cheklab qo'yadi.

Inson munosabatlari maktabi asoschisi Elton Mayo boshqaruvda ijtimoiy-psixologik omillarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. OTTLari muhitida akademik xodimlar va talabalar motivatsiyasi, korporativ madaniyat, akademik erkinlik, liderlik va kommunikatsiya samarali menejmentning hal qiluvchi omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy OTTLari menejmentida inson kapitali markaziy o'rinni egallashi lozim.

Keyinchalik tizimli va vaziyatli yondashuvlar tashkilotni tashqi muhit bilan o'zaro aloqadagi ochiq tizim sifatida talqin qildi. Tizimli yondashuv OTTLarini tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirdagi ochiq tizim sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, OTTLari faoliyati davlat siyosati, mehnat bozori, demografik tendensiyalar va xalqaro ta'lim makoni bilan uzviy bog'liq. Vaziyatli yondashuv esa boshqaruv qarorlari universal emasligini, balki muayyan shart-sharoitga mos ravishda qabul qilinishi kerakligini asoslaydi. Bu ayniqsa avtonomiya sharoitida OTTLari boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi.


XXI asrda strategik menejment konsepsiyasi OTTLarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratildi. Peter Drucker ta'kidlaganidek, zamonaviy

³ <https://www.unesco.org/en/higher-education>

tashkilotlarda bilim asosiy resurs hisoblanadi. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida universitet ta'lim beruvchi muassasa, ilmiy tadqiqot markazi, innovatsiya generatori va iqtisodiy sub'ekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois universitet menejmenti strategik rejalashtirish, KPI tizimi, innovatsion faoliyat va intellektual kapitalni boshqarishni qamrab olishi lozim.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da OTTlarga akademik va moliyaviy mustaqillik berish strategik vazifa sifatida belgilab berildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra: 2016 yilda respublikada 77 ta OTTlari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025 yilga kelib ularning soni 222 taga yetgan; talabalar soni 250 ming nafardan 1,5 million nafargacha oshgan; nodavlat OTTlari soni 60 tadan ortiqni tashkil etgan.⁴ Bu ko'rsatkichlar ekstensiv o'sishni namoyon etmoqda. Demak, institutsional o'zgarishlar natijasida OTTlari soni qariyb uch barobarga oshdi, talabalar kontingenti keskin ko'paydi, nodavlat va xorijiy universitet filiallari faoliyati kengaydi va raqobat muhiti shakllandi. Bu jarayonlar an'anaviy ma'muriy boshqaruv modelidan strategik va korporativ boshqaruvga o'tishni taqozo etmoqda.

Tahlillar asosida OTT menejmenti quyidagi integratsiyalashgan model asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq (1-rasm):



1-rasm. Oliy ta'lim tashkiloti menejment tizimini takomillashtirishning konseptual yo'nalishlari.⁵

1. Strategik boshqaruv bloki (missiyani aniqlash, KPI tizimini joriy etish, reyting strategiyasini ishlab chiqish).
2. Akademik sifat bloki (ichki sifatni ta'minlash tizimi (IQAS), ta'lim dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilish, ilmiy faollikni rag'batlantirish).
3. Moliyaviy barqarorlik bloki (daromadlarni diversifikatsiya qilish, grant va investitsiyalarni jalb etish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish).
4. Raqamli transformatsiya bloki (data-driven qaror qabul qilish, elektron boshqaruv tizimlari, ta'lim jarayonini raqamlashtirish).
5. Institutsional barqarorlik bloki (korporativ boshqaruv elementlari, risk-menejment, ichki audit va monitoring tizimi).

⁴ <https://stat.uz>

⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, menejment nazariyalarining evolyusiyasi OTTlari boshqaruvini modernizatsiya qilish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Yangi O'zbekiston sharoitida OTTlari avtonomiya, raqobat va xalqaro integratsiya muhitida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli, OTTlarda strategik, innovatsion va natijaga yo'naltirilgan menejment modelini joriy etish

ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. Taklif etilgan integratsiyalashgan menejment modeli OTTlarining ta'lim sifati, ilmiy salohiyati, moliyaviy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligi kabi ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari menejment tizimini takomillashtirish masalasi faqat tashkiliy islohot emas, balki mamlakatning intellektual kapitali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. Fayol H. General and Industrial Management. – London, 2015.
3. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices New York: Harper Business, 2007.
4. OECD. Education at a Glance. – Paris, 2022.
5. Altbach P., Salmi J. The Road to Academic Excellence. – World Bank, 2011.
6. Saidaxmedova N.I. Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Jurnal. Toshkent. №4, 2025.
7. State of the World's Youth. <https://www.un.org/en/global-issues/youth>
8. <https://www.unesco.org/en/higher-education>
9. <https://www.whed.net/home.php>
10. <https://stat.uz>